



OILADA SHAXSNI KAMOL TOPSHIRISHDA IRSIYAT, TARBIYA VA FAOLIYATNING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Rustambayeva Moxinur Maxmud qizi

“Amaliy psixologiya” yo`nalishi

talabasi. UrDU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7444967>

ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Oilaviy munosabatlar, ota-onalik, ijtimoiy va nasliy omillar, irsiyat, muhit va tarbiya

ABSTRACT

Ushbu maqolada Oilada shaxsni kamol topshirishda irsiyat, tarbiya va faoliyatning o'zaro bog'liqligi mazmuni o'rganilgan.

Kirish. Mamlakatimizda bugungi kunda nikoh profilaktikasi, uning lozim darajada faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, shaxslarning ruhiy jihatdan salomatligini ta'minlashning ham dolzarb yo`nalishlaridan biri ularning shaxs rivojlanishida oila ijtimoiy muhitining ta'siri samarali xususiyatlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Respublikamizda oilaga va birinchi navbatda, ota-onalikka psixologik tayyorlashning zarurligiga davlat ahamiyati darajasida e'tibor qaratilib, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish, oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, shaxs rivojlanishida oila ijtimoiy muhitining ta'sirini o'rganish dolzarb muammo sifatida ko'riladi[2.45].

Bola xarakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi. Shaxs kadrlar

tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim soxasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi. Kadrlar tayyorlash soxasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jixatdan tarbiyalash, uning xar tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi xar bir fukaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jixatdan rivojlanishi xamda muayyan kasb yo`nalishi bo'yicha mehnat qilish xuquqni kafolatlaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Hozirgi paytda oila va insonlararo munosabatlar azal-azaldan o'rganilib kelinayotgan masalalardan sanaladi. Bu borada oilaning ijtimoiy va etnik xususiyatlari, oila va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi, shaxs ulg'ayishidagi ijtimoiy va nasliy omillar mavzulari borasida respublikamiz olimlari ham salmoqli ishlar olib borishgan.



Respublikamizda bunday tadqiqotlar olib borgan etuk psixologlardan G'.B.SHoumarov, I.O.Xaydarov, N.A.Sog'inov, V.M.Karimova, F.A.Akramova, A.B.SHamsiev, R.S.Samarov ishlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Inson hayot ekan, butun umri davomida o'sib, rivojlanib, o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarida shaxsning kamol topishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda biz shaxsning xam jismoniy, xam aqliy va ma'naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Pedagogika va psixologiya fani rivojlanishni biologik va sotsial xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun narsa deb xisoblaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi xar tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida psixologia fani rivojlanishining qonuniyatlarini unga ta'sir etuvchi omillarni shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya xamda faoliyatining ta'siri va ahamiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi. SHaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi.

Irsiyat - bu ota koni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xshashliklarning naslga (bolaga) o'tish jarayonidir[3.48].

Nasldan-naslga o'tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

Anatomik-fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi), organlar holati, qaddi-qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch xamda ko'zlarning rangi. SHuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakat va amallar, vertikal xolatda yurish, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlari xam nasldan-naslga o'tadi. Iste'dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mexnat va ijod turiga yo'naltirilgan emas. Iste'dod alomatlari

muayyan faoliyatga moyillikni aks ettiradi xolos.

Ma'lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajlodlariga xos iste'dod nishonasi aks etganda, aynan ana shu iste'dodning shakllanishida muxim rol o'ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega oila muhitini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Fiziologiya va psixologiya fanlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo'lgan layoqat bilan tug'iladi. Layoqat go'yo "mudroq" xolatda bo'lib, uning "uyg'onishi" - rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishni talab qiladi.

SHaxs muayyan ijtimoiy jamiyat maxsulidir. SHaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga yoki ijobiy, yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni xamda darajasiga bog'liq.

Muhit deganda shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam vokelik, kodisalar majmui tushuniladi. "Muhit" tushunchasi o'zida geografik-kududiy, ijtimoiy va mikro muhit (oil) xususiyatlarini ifoda etadi.

Mikromuhit o'zida qisman ijtimoiy muhit kiyofasini aks ettiradi. Ayni chog'da u nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi xodisalar mavjud. Agar bola uz tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta



ko`rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo`lmasa yo`q bo`lishi yoki "mudroq"ligicha qolib ketishi xam mumkin. Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlari, shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o`zaro ta`siri asosida vujudga keladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayoniga ta`siri roliga aloxida e`tibor beradi. Ijtimoiy voqea va xodisalarning shaxs rivojiga ta`siri g`oyat muhim ekanligini ta`kidlagan xolda, ular ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta`siri ostida o`zgarib boradi, deya ta`kidlaydilar.

Oila muhiti - mikro muhit xam o`ziga xos muhim tarbiyaviy ta`sirga ega. SHu bois, mustaqillikka erishilgandan so`ng o`tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida to`tgan o`rni va ahamiyati masalalari chuqur taxlil etilmoqda. SHu maqsadda tashkil etilgan "Oila" ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda[13.85].

Mavjud ijtimoiy muhit insonning o`sib borayotgan ongiga ta`sir etadi. Ijtimoiy tuzum darajasi qanchalik yuqori bo`lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta`siri xam shunchalik yuqori bo`ladi. Ushbu ta`sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya - biror maqsadga yo`naltirilgan jarayon bo`lib, u muayyan darajadagi dastur g`oyalari asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo`lgan kishilar tomonidan tashkil etiladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta`sirlarning barchasi bilan bog`liq xolda ta`sir qiladi. Bunda qulay omillardan foydalaniladi, salbiy ta`sirlarning kuchini ma`lum darajada

kamaytiradi. Muhitning ta`siri stixiyali, tarbiyaning ta`siri esa maqsadga muvofiq olib boriladi.

Tarbiya jarayonida quyidagi xolatlar vujudga keladi:

1. Tarbiya jarayonida kishi ongining o`shishi sodir bo`ladi. Masalan, bola o`z ona tilini atrofini o`rab turgan muhitning ta`sirida o`rganib olishi mumkin. Lekin o`qish va yozishni maxsus ta`lim yo`li bilangina o`rganadi. Ma`lum bilim ko`nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

2. Tarbiya yordamida xatto, kishining ba`zi tug`ma kamchiliklarini xam kerakli tomonga o`zgartirish mumkin. CHunonchi, ba`zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug`iladi. (kar, ko`r, soqov va x.k). Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqliy qobiliyatlarini to`la taraqqiy qiladi, tug`ma kamchiligi bo`lmagan kishilar bilan barobar faoliyatda bo`lishi mumkin.

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta`siri natijasida yuz bergan kamchiliklarni xam tugatish mumkin. (bolalarning karta qimor o`ynashi, chekish, ichish va narkotik moddalarga o`rganish kabilar va xk).

4. Tarbiya istiqbol maqsadni belgilaydi. SHu bois, u shaxs kamolotini ta`minlashda ilg`or rol o`ynaydi.

Tarbiyaning muvaffaqiyati ko`p jixatdan bola shaxsining o`ziga xos xususiyatlari, u yashayotgan muhitning ta`sirini xisobga olishga bog`liqdir. SHuni yodda to`tish kerakki, bola majbur bo`lgan mikromuhit mazmunini uning rivojlanishiga ta`sir etuvchi kishilar va ular bilan o`rnatilgan aloqa moxiyati belgilaydi. Bola oila a`zolari, tarbiyachi, o`qituvchi, o`rtoqlari, oilaga yaqin kishilari bilan munosabatda bo`ladi. Ushbu munosabatlar bolaning rivojlashida



g'oyat muhim rol o'ynaydi. Bolaga ularning ta'siri o'zaro muomala-munosabati bo'ladi. Ana shu aloqa asosida bola ajdodlar tajribasini o'zlashtiradi, o'zi uchun andoza tanlaydi.

Bola va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabat faol jarayondir. Mazkur jarayonda kattalar faqatgina o'rgatuvchi bo'lib qolmasliqlari lozim. SHundagina u o'z xarakterlarini o'zi idora qilishga, o'z faoliyati mazmunini taxlil qilishga o'rganadi. Bola fikr qilar ekan, uylar ekan, uning ongi, tafakkuri o'sadi.

Ijtimoiy munosabatlar jarayonida nutq rivojlanadi. CHunki jamiyatda bola kattalar, tengdoshlar, tarbiyachilar va turli jamoalar qurshovida bo'lar ekan, u savollar beradi, kuzatadi, muloxaza qiladi. Xayotiy voqea-xodisalarni tushunishga, yaxshini yomondan ajratib olishga, o'z xarakterlarini davr talabiga moslashtirishga o'rinadi. Har bir ijtimoiy jamiyatda tarbiyaning maqsad va vazifalari, axloq me'yorlari, madaniy boyliklar, jamiyat a'zolarining didi, ahloqiy qarashlari, dunyoqarashlari, e'tiqodlari o'zgarib boradi va ular tarbiya vositasida bolalar ongiga singdirilib boriladi.

Bola shaxsning rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatda bo'ladi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, tafakkur qilish darajasi yo'qaladi, xarakter sifatleri takomillashib, kamol topadi.

Xulosa. E'tirof etish lozimki, xar qanday jamiyatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy muhitning

asosiy funksiyalaridan biri - shaxsning xatti-xarakati, uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tashqi ob'ektiv omillar majmuasi xamda muayyan tizim bo'lib, u o'zida shaxs imkoniyatlarini shakllantiradi, xayotga joriy etadi. Natijada xar bir inson jamiyat xayoti bilan bevosita aloqadorligidagi aniq ijtimoiy faoliyat va muloqot maydonini namoyon qiladi. CHunki, u inson xatti-xarakati, yurish-turishini shakllantiradi va boyitadi. Mamlakatimiz mustaqilligining muhim vazifalaridan biri xam jamiyatning barqaror rivojlanishi xamda sog'lom turmush tarzini ta'minlashdir.

SHu bois, ijtimoiy muhit jamiyat taraqqiyotining takomillashuvida muhim ahamiyatga ega ekanligini aloxida ta'kidlash lozim. Zero, insonning tarbiyasida ijtimoiy muxitning ta'siri biz o'ylaganimizdan xam birmuncha ahamiyatliroqdir. Jumladan:

✓ shaxslarning aqliy saloxiyati va xarakteri ular yashab turgan boshqaruv shakliga qarab o'zgarib boradi;

✓ shaxslar qandaydir ko'nikmalar bilan dunyoga kelmaydilar, ular bor-yo'g'i tarbiya maxsulidir;

Xulosa o'rnida shuni aloxida ta'kidlash lozimki, Mustaqil O'zbekiston sharoitida sog'lom fikrli, axloq, axloqan pok avlodga erishish va shu orqali jamiyatimiz qudratini yanada mustaxkamlashda ijtimoiy muhitning o'zni nixoyatda muhimdir. Zero sog'lom, intellektual baquvvat, avlodgina sog'lom millat - sog'lom jamiyat quradi va sog'lom turmush tarziga erishadi.

References:

1. Mirziyoev. SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga



kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. - T.: "O'zbekiston", 2016. - 56 b.

2. Shaumarov G.B. Oila psixologiyasi./ Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.- T.: Sharq.- 2000.

3. Nishanova Z.T. Yoshlarning mustaqil fikrlash xaqidagi qarashlarining psixologik taxlili. Pedagogika va psixologiya fanlari soxasidagi ilmiy ishlar tanlovi g'oliblarining maqolalar to'plami. -T.: Uz PFITI.- 1999.

4. Inomova O. «Farzand-nixol, ota-ona bog`bon» Toshkent, «O`qituvchi» 1994 y.